



BOYSUNNING AYRIM QISHLOQLARIGA XOS ETNOLOKAL XUSUSIYATLAR

(Machay va Qizilnavr qishloqlari misolida)

Pardayev Toshkentboy Rajabovich,
TerDU Jahon tarixi kafedrası professorı,
tarix fanları doktori.



Annotatsiya:

Ushbu maqolada Boysunning qadim makonlari hisoblangan Machay va Qizilnavr qishloqlari aholisining an'anaviy turmush tarzi va uning etnolokal xususiyatlari yuzasidan ma'lumotlar berilgan.

Kalit o'zlar:

qishloq, an'ana, xo'jalik, urf-odat, marosim, etlokal jihat, madaniyat.

Abstract:

This article provides information on the traditional way of life of the population of the villages of Machay and Qizilnavr, which are considered ancient settlements of Boysun, as well as their ethnolocal characteristics.

Keywords:

village, tradition, economy, customs, rituals, ethnolocal features, culture.

Аннотация:

В данной статье представлены сведения о традиционном образе жизни населения деревень Мачай и Кызылнавр, которые считаются древними поселениями Бойсуна, а также об их этнолокальных особенностях.

Ключевые слова:

деревня, традиция, хозяйство, обычаи, обряды, этнолокальные особенности, культура.

Machay qishlog'i – Sherobodaryoning yuqorisida joylashgan bo'lib, Sherobodaryoning Machay qishlog'igacha bo'lgan qismi Machaydaryo deb atalgan. o'tmishda Machaydaryoning nomi Turkan (Gurgan) daryo bo'lgan.

Machay qishlog'i uch qismdan: Yuqori Machay, O'rta Machay va Quyi Machay qishlog'i. Yuqori Machay va O'rta Machay qishloqlarining o'rtasida mashhur Teshiktosh g'ori joylashgan. Machay so'zining etimologiya bo'yicha yakdil fikri mavjud emas.

Machay qishlog'i nisbatan chuqurlikda joylashgani bois "manna choi" deyilgan va keyinchalik Machay bo'lib ketgan ekan. Mazkur uch qishloqda ham o'zbek kenagaslar, barloslar, turklar, hardurilar, qisman eroniyar yashashadi. Asosiy aholi 350-360 yil oldin ko'chib kelgan deyishadi. Bugungi kunda birgina Yuqori Machay qishlog'ida 372 xo'jalikda jami 1576 kishi yashaydi.

Machay qishloqlarining xo'jaligida dehqonchilik muhim o'rin tutadi. Dehqonchilikda lalmikor yerlarga bug'doy, arpa, zig'ir ekiladi. Lalmikor yerlardan ham mo'l hosil olingan. Bu yerlarda oldinlari o'ziga xos almashlab ekishga amal qilingan bo'lib, bir yil ekilgan yerlarga ikkinchi yil ekilmagan. Yer shudgor qilib qoldirilgan va yil bo'yi qor hamda yomg'ir suvidan to'yinib dam olgan. Yil yomon kelib, yog'ingarchilik bo'lmasa, yosh bolaning ustiga janda kiydirib suv sepilgan. Dehqonchilik bilan bog'liq "Darveshona" va "Qozon to'ldi" marosimlari o'tkazilgan. Chorvachiligi ko'proq qo'y, echki qisman yilqi va qoramol boqiladi. Qo'y va echki junidan, shuningdek, keyingi davrlarda paxtadan Gojari gilam, Qo'chqormayiz, Imomsulton, Ajdar gilam kabi gilamlar va turli-tuman o'lchamdagi kigizlar tayyorlangan va ularning ayrimlari sotuvga ham chiqariladi. Hunarmandchilikda duradgorlik yaxshi rivojlangan. Ustadoradgor Turabboy bobo yog'ochdan turli o'ymakorlik buyumlari: naqshli sandiqlar, do'mbira, halaji, charx kabi kundalik ehtiyoj buyumlarini yasagan.

An'anaviy taomlar: sho'rva, qaynatma sho'rva, palov,

jalama (shavla), qurtoba, shiringurich, bug'doy yormasidan osh qilinadi.

Machay qishlog'i aholisining to'y marosimlari ham o'ziga xos bo'lib, sovchilikka borilganda "Biz sizning uyingizga kunda yorgani keldik" deb murojaat qilinadi. Nikoh marosimlarida oldinlari kelinning qaliniga yer ham berilgan. Ba'zilar hattoki quda bo'lishdan oldin yerini hisobga olib qiz berganlar. Xatto mol puli yetmaganlar yerini berib evaziga kelin olganlar yoki o'miga bir necha yil ishlab berganlar. Shuningdek, qaliniga 20-30 ta mol berilgan, hozir 15-20 ta qo'y, 15-20 ming so'm pul, ikki toy paxta, bir qop un, bir qop guruch, 10 kg moy va meva-chevalar beriladi.

Qishloqning motam marosimlarida ham o'ziga xoslik kuzatiladi. Machay ahlining dafn marosimlarida marhum keksa yoshli bo'lsa o'sha kuni dasturxon yozilib, qo'y so'yilgan. Agar yosh bo'lsa yetti kun mobaynida hech qanday dasturxon tuzatilmagan. Birinchi kun isqot (hayrot) – kelganlarga pul tariqasida tarqatilgan. Oldinlari tanga pullarni tobutning ustidan sochish rasm bo'lgan. Marhumni uning yaqin qarindoshlari – suyuq egalari yuvadi. Qabrga ham uning yaqin qarindoshlari, ko'proq tog'asi qo'yadi.

Machay qishlog'ida boshqa qishloqlardan farqli ravishda marhumni xotirlash bilan bog'liq "etti", "qirq", "yil oshi" marosimlariga o'tkaziladi. Marhumning yaqin qarindoshlari motam ramzi sifatida kiygan o'zlarining motam kiyimlarini marhum vafotidan so'ng bir yil o'tgandan so'ng qozon ostiga olib kuydirilgan.

Qizilnavr qishlog'i Machaydaryoning chap tomonida joylashgan bo'lib asosiy aholisini tog'chi-qatag'onlar tashkil etib, xo'jaligi asosan lalmikor dehqonchilik va chorvachilikni tashkil etadi. Qizilnavrda 200 gektarga yaqin qadimdan ekilib kelinadigan lalmikor yerlar mavjud bo'lib, bugungi kunda bu yerda shirkat xo'jaligining o'rnida fermerlar uyushmasi tashkil etilgan. Daryoning chap tarafida Arpapoyada 60 gektarga yaqin, Kengdalaga borishda Mobirlida 50-60 gektarga yaqin o'rmonli hududda kartoshka, Kengdalada o'rmonchilik xo'jaligi bo'lib 1930 yillarda tashkil etilgan[6].



Qishloqda asosan chorvachilik rivojlanib, dehqonchilikda ham lalmikor yerlarga arpa va bug'doy ekilganligi bois bog'dorchilik unchalik rivojlanmagan. Arpapoya obikor bo'lib, buloqlar suvi bilan sug'orilib dehqonchilik qilingan. Chorvachilikda asosan ot (yilqi) asosiy tarmoq hisoblanib, shuningdek, echki, ko'proq qo'y va qoramol boqilib, chorva ko'pincha O'rikli va Jabayak kabi katta-katta laylovlarda rivojlangan. Otlar ko'pkaridan oldin 40 kun boqilib, 40 kun sovitilib, usta chavandozlar ko'pkariga safarbar etiladi. Hunarmandchilikda omoch, qo'sh, egarsozlik, zargar ustalar, xalaji, charh yasovchi ustalar bo'lgan. Ayollar turli xil paxtadan va jundan xojari, chumchuqko'z, taqir kabi turli tuman nomdagi gilamlar to'qiydilar.

Ushbu qishloqning to'y marosimlari quyidagicha: Tog'chi-qatag'onlarda asosan ichki nikoh marosimiga amal qilingan, lekin hozirda bu an'ana buzilib bormoqda. Tog'chi-qatag'onlarni oldinlari Bobotog'dagi tog'chi qatag'onlar bilan nikoh munosabatlari bo'lgan, lekin hozir o'zaro oilaviy aloqalar mavjud emas. Erkaklar va ayollar sovchi bo'lib borishadi. Ko'pincha ikki erkak sovchilikka borishadi. Qatag'onlarda sovchini – elchi deyishadi. Sovchilar sovchilikka borishganda “Elga tushgan elchiman, qizga kelgan sovchiman. Bir qorabaycho'ri so'rab keldim” deb murojaat qilgan.

Qatag'onlarda ham boshqa turkiylarda bo'lgani singari “non sindirish”, “to'qqiz tovoq”, “ijob to'yi”, “bet ochar” kabi marosimlar o'tkaziladi. To'y jo'natishda bo'lg'usi kelinning uyiga 15-20 ta qo'y, bir qop guruch, 20-25 ming so'm qalin puli yoki shir (sut) haqqi beriladi. Nikoh oldinlari kelinning uyida, hozirda kuyovning xonadonida mahalla mullasi tomonidan o'qiladi. Ayollarni oldinlari nikohdan so'ng boshiga katta salla o'rashi rasm bo'lgan, hozirda o'ralmaydi. Nikoh to'yida qizning onasi birgalikda tushirib borgan. Nikohda beriladigan yoki qo'yiladigan narsalar doimo juft bo'lgan. Qizig'i shundaki, Qatag'on ayollari ham nikohdan so'ng O'rta Osiyo arablari singari nattiba taqishgan. Sunnat to'ylar asosan o'g'il bolaning toq yoshida o'tkaziladi. To'y tantanalari asosan 3 kun davom etib ko'pkari, olish (kurash) uyushtiriladi.

Motam marosimlari: Qatag'onlarda inson vafoti munosabati bilan o'tkaziladigan mungli marosimdir. Motam marosimlari juda ko'p rasm-rusum, odat va kichik marosimlar majmuidan tashkil topgan.

Jon berish arafasida turgan odamning oldida Yosin surasi o'qiladi va mazkur uydagi barcha narsalar makruh bo'ladi deb olib chiqiladi. Jon chiqqandan so'ng mayitni mahram suviga olinadi. Bu yerda boshqa qishloqlardagi singari o'likni “mehmon qilish” odati yo'q. Marhumning eng yaqin kishilaridan, agar ular bo'lmasa, urug' ichidagi ixtiyoriy shaxslardan to'rt kishi yuvadi. Ayol kishini yuvishda hattoki uni yuvish uchun ishlatiladigan suvni ham nomahram odam ko'rmasin deb ichkarida isitilar ekan. Erkak mayitni yuvish uchun suv tashqarida 3 ta tosh qo'yib isitilgan. Marhumni yuvish uchun atigi ikkita choynak va ikkita kosa olib kelinadi.

Motam marosimlarida yig'i, ayniqsa marsiya aytib yig'lash alohida o'rinni egallaydi. Dafn kunidagi yig'ida erkaklar va ayollar (ayniqsa ayollar) baland ovozda dod solib, yuzlarini yulib, marsiya aytib yig'laydilar.

Marhum dafn etilgan kuni qora osh qilish rasmi bo'lgan. Faqat mazkur taom marhum dafn etilgandan so'ng qo'shni xonadonda yoki yaqin qarindoshlarning uyida tayyorlanadi. Oldinlari yetti kun mobaynida hozirda uch kun mobaynida marhum chiqqan xonadonda olov yoqib ovqat tayyorlanmaydi. Mayit yuvilgan joyga dafndan so'ng har kecha ikkitan chiroq qo'yiladi. Shuningdek marhum yuvilgan joy tuprog'ining yetti joyidan olinib qabrning ustiga to'kiladi.

Marhumning yaqin kishilari motam ramzi sifatida ko'k rangli kiyimni uning yiligacha kiyishgan. E'tiborli tomoni shundaki, oldinlari marhumning yaqin erkak qarindoshlari ham qirq kun mobaynida ko'k jelak kiyishgan. Marhumni xotirlash bilan bog'liq yetti, yigirma, qirq, yil oshi va Iyda Ramazon hamda Iyda Qurbon bilan bog'liq hayitliklar kabi marosimlar o'tkaziladi. Dafn marosimi va undan keyingi marhum xotirasi bilan bog'liq marosimlardan dasturxonlarda narsalar toq qo'yilgan. Bundan maqsad bundan keyin o'lim bo'lmasin juftlashgan balolalar kelmasin degan aqida ustuvorlik qiladi.

Xullas, Machay va Qizilnavr qishloqlari aholisining an'anaviy turmush tarzi o'ziga xos etnolokal xususiyatlar kasb etsada, umumo'zbek madaniyatining bir bo'lagini tashkil etadi. Ushbu qishloqlar aholisining an'ana va udumlari hamisha tadqiqotchilarni o'ziga jalb qilib kelishi bejiz emas.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro'yxati:

1. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1988. – С. 288
2. Қаюмов А. XX аср бошларида Ўзбекистон ҳудудида этник ҳолат. – Тошкент: Адабиёт учқунлари, 2015. – С. 180.
3. Умаров И.И. Жанубий Ўзбекистоннинг тоқчи-катагонлари // “Янги Ўзбекистон шароитида тарих ва этнология фанларининг долзарб масалалари ва истиқболлари” мавзусидаги Республика илмий анжумани мақоалалар тўплами. – Тошкент: “Шафоат Нур Файз”, 2024. –Б. 123-126.
4. Курбонов А. Шимолий Сурхон воҳаси аҳолиси анъанавий маданиятининг этник ва локал хусусиятлари (XIX аср охири – XX асрнинг биринчи ярми): Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2009.
5. Насридинов К. Традиционные похоронные обряды узбеков в конце XIX – 80-е годы XX в. (на материалах Кашкадарьинской области): Автореф. дис. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1995. – 26 с.
6. Кармышева Б. Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М.: Наука, 1976. – С. 324
7. Бўриев О., Усмонов М. Ўзбеклар: этник тарих ва этномаданий жараёнлар. – Самарқанд, 2008. – 244 б
8. Исмоилов Х. Ўзбек тўйлари. – Тошкент, 1992. – 129 б.
9. Кармышева Б. Х. К истории формирования населения южных районов Узбекистана и Таджикистана. // СЕ. – 1964. – №6. – С. 4–22
10. Қаюмов А. Р. Шеробод воҳаси аҳолиси (XIX–XX аср бошлари) // ЎИФ. – 1998. – №3. – С. 34–39.